

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 161 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIYA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich6 Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	



QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI

Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

mustaqil izlanuvchi

E-mail: abbostax@gmail.com

Orcid kod: 0009-0004-5435-5998

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada qurilish korxonalarida innovatsion marketing yondashuvlarining ahamiyati, ularning raqobatbardoshlikni oshirishdagi o'rni hamda iqtisodiy samaradorlikka ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli marketing texnologiyalari, mijozga yo'naltirilgan marketing strategiyalari va innovatsion kommunikatsiya vositalarining qurilish sohasida qo'llanilishi o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik hamda tahliliy usullardan foydalanilgan. Olingan natijalar innovatsion marketing yondashuvlari qurilish korxonalari faoliyatini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: qurilish korxonalari, innovatsion marketing, raqamli marketing, raqobatbardoshlik, marketing strategiyasi.

Abstract. This scientific article examines the significance of innovative marketing approaches in construction companies, their role in enhancing competitiveness, and their impact on economic efficiency. The application of modern digital marketing technologies, customer-oriented marketing strategies, and innovative communication tools in the construction sector has been analyzed. Economic-statistical and analytical methods were employed in the research process. The findings indicate that innovative marketing approaches are a key factor in the development and sustainable growth of construction companies.

Keywords: construction companies, innovative marketing, digital marketing, competitiveness, marketing strategy.

Аннотация. В данной научной статье анализируется значение инновационных маркетинговых подходов в строительных компаниях, их роль в повышении конкурентоспособности и влияние на экономическую эффективность. Рассмотрено применение современных цифровых маркетинговых технологий, клиентоориентированных стратегий и инновационных коммуникационных инструментов в строительной отрасли. В процессе исследования использованы экономико-статистические и аналитические методы. Полученные результаты подтверждают, что инновационные маркетинговые подходы являются важным фактором развития деятельности строительных компаний.

Ключевые слова: строительные компании, инновационный маркетинг, цифровой маркетинг, конкурентоспособность, маркетинговая стратегия.

KIRISH

Global iqtisodiyotda bozor munosabatlarning chuqurlashuvi va raqobat muhitining kuchayishi barcha tarmoqlar qatori qurilish sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda qurilish korxonalari nafaqat ishlab chiqarish quvvatlari va texnik salohiyati, balki bozorda o'z mahsulot va xizmatlarini samarali taqdim etishi, mijozlar bilan barqaror munosabatlarni shakllantirishi orqali ham raqobatlashmoqda. Shu bois marketing faoliyatini zamonaviy va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish qurilish korxonalarining barqaror rivojlanishida muhim omilga aylanmoqda.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi marketing faoliyatida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Qurilish sohasida an'anaviy reklama vositalari bilan bir qatorda raqamli marketing, brending, mijozlarga yo'naltirilgan kommunikatsiya hamda axborot texnologiyalariga asoslangan marketing yondashuvlarining joriy etilishi bozorda ustunlikka erishish imkonini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim



qurilish korxonalarida innovatsion marketing imkoniyatlaridan yetarli darajada samarali foydalanish salohiyati mavjud.

Shu nuqtai nazardan, qurilish korxonalarida innovatsion marketing yondashuvlarining ahamiyatini ilmiy asosda o'rganish, ularning iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikka ta'sirini tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu masalalar atroflicha yoritilib, zamonaviy marketing yondashuvlarining qurilish korxonalari faoliyatidagi o'zni va ahamiyati tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro tadqiqotlarda raqobatbardoshlikni oshirish va biznes strategiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari keng o'rganilgan. Xususan, Ida Farida va Doddy Setiawan tomonidan olib borilgan tadqiqotda biznes strategiyalarining raqobat ustunligiga ta'siri hamda ularning innovatsion faoliyat bilan uzviy aloqasi iqtisodiy tahlil asosida yoritilgan. Mazkur tadqiqot marketing strategiyasini korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim mexanizmi sifatida baholaydi.

Ilmiy adabiyotlarda innovatsion marketingning ahamiyatini ochib beruvchi tadqiqotlar ham mavjud. Jumladan, Marziya Muxtarovanning ilmiy ishida raqamli marketing vositalaridan foydalanish samaradorligi hamda zamonaviy marketing tendensiyalari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot natijalari an'anaviy sohalar, jumladan qurilish tarmog'ida ham raqamli marketing yondashuvlarini qo'llash istiqbollari mavjudligini ko'rsatadi¹.

Marketing strategiyalari va raqobatbardoshlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik marketing hamda strategik menejment nazariyasida keng o'rganilgan. Strategik marketing yondashuvlari korxonaga uzoq muddatli bozor ustunligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xususan, Farmonov (Qo'qon universiteti) o'z tadqiqotlarida strategik marketingning mohiyati va uning raqobatbardoshlikka ta'sirini yoritib, ushbu konsepsiya barqaror strategik rejalashtirishni talab etishini ta'kidlaydi.

O'zbekiston sharoitida marketingning iqtisodiyot va iqtisodiy siyosatga ta'siri hamda uning bozordagi rolini tahlil qiluvchi ilmiy tadqiqotlar ham mavjud. Jumladan, Egamberdiyevning ilmiy ishlari marketingning milliy iqtisodiyotga va biznes muhitiga ta'sirini asoslab beradi. Ushbu yondashuvlar qurilish korxonalarida marketing strategiyalarini tizimli va ilmiy asosda shakllantirish zaruratini yanada tasdiqlaydi².

Marketingning alohida jihatlari bo'yicha mahalliy tadqiqotlar qatorida Normurodovanning raqamli marketing strategiyalarining kichik biznes rivojiga ta'siriga bag'ishlangan maqolasi muhim o'rin tutadi. Muallif mazkur tadqiqotda raqamli marketing vositalarining iqtisodiy samaradorligini chuqur tahlil qilib, zamonaviy biznes muhitida raqamli texnologiyalar orqali raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlarini ilmiy asosda yoritadi. Ushbu xulosalar qurilish korxonalarida ham innovatsion va raqamli marketing yondashuvlarini qo'llashning amaliy ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

- iqtisodiy tahlil va taqqoslash usuli;
- statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va tizimlashtirish;
- mantiqiy tahlil hamda ilmiy mushohada;
- soha bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlarni tizimli o'rganish va tahlil qilish.

Tahlil jarayonida qurilish korxonalarining marketing faoliyatiga oid ochiq axborot manbalari, ilmiy maqolalar hamda normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanildi. Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qurilish korxonalarida innovatsion marketing yondashuvlarini joriy etish korxona faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, marketing faoliyatida raqamli texnologiyalar, brend strategiyasi hamda mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvlardan foydalanish sotuv hajmining oshishi, bozor ulushining kengayishi va korxona imijining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

O'rganilgan ma'lumotlarga ko'ra, innovatsion marketing vositalarini (ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, onlayn reklama platformalari) faol qo'llayotgan qurilish korxonalarida mijozlar bilan o'zaro aloqa darajasi sezilarli darajada oshgan. Bu esa mijozlarning qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirib, qurilish loyihalariga bo'lgan ishonchni kuchaytirmoqda.

¹ Multidisciplinary Journal of Science and Technology https://www.mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/4318?utm_source

² O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/7941?utm_source

Natijada marketing xarajatlarning optimallasuvi kuzatilgan bo'lib, raqamli marketing vositalarining samaradorligi an'anaviy marketing usullariga nisbatan yuqori ekanini aniqlangan. Mazkur holat innovatsion marketing yondashuvlari qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval. Innovatsion marketing omillarining qurilish korxonalari raqobatbardoshligiga ta'siri³

Ko'rsatkichlar	Belgilanishi	Kutilayotgan ta'sir yo'nalishi	Amaliy izoh
Marketing xarajatlari	X_1	Ijoiy (+)	Reklama va targ'ibot xarajatlari oshishi sotuv hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi
Raqamli marketing darajasi	X_2	Ijoiy (+)	Ijtimoiy tarmoqlar, veb-sayt va onlayn reklama samaradorlikni oshiradi
Brend strategiyasi	X_3	Ijoiy (+)	Brend imiji va ishonchliligi mijozlar sodiqligini kuchaytiradi
Raqobatbardoshlik darajasi	Y	—	Sotuv hajmi, bozor ulushi va foyda ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi

Ekonometrik model (regressiya tenglamasi). Qurilish korxonalarida innovatsion marketing yondashuvlarining raqobatbardoshlikka ta'sirini baholash uchun quyidagi ko'p omilli regressiya modeli taklif etiladi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \varepsilon$$

bu yerda:

- Y — qurilish korxonasining raqobatbardoshlik darajasi;
- X_1 — marketing xarajatlari hajmi;
- X_2 — raqamli marketingdan foydalanish darajasi;
- X_3 — brend strategiyasining rivojlanganlik darajasi;
- β_0 — erkin had;
- $\beta_1, \beta_2, \beta_3$ — baholanadigan regressiya koeffitsientlari;
- ε — tasodifiy xatolik.

Model natijalari shuni ko'rsatadiki, β_2 va β_3 koeffitsientlarining statistik ahamiyatligi yuqori, ya'ni raqamli marketing va brend strategiyasi qurilish korxonalari raqobatbardoshligiga eng kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Olingan ekonometrik natijalar shuni tasdiqlaydiki, qurilish korxonalarida innovatsion marketing yondashuvlarini joriy etish faqat qisqa muddatli natijalarni emas, balki uzoq muddatli strategik ustunlikni ham ta'minlaydi. Ayniqsa, raqamli marketing va brend strategiyasining kuchaytirilishi bozor sharoitlariga tez moslashish imkonini beradi. Bu holat xalqaro tadqiqotlar natijalari bilan mos keladi va innovatsion marketing yondashuvlarining amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot qurilish korxonalarida innovatsion marketing yondashuvlarining ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashga qaratildi. Olib borilgan tahlillar va ekonometrik baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion marketing strategiyalarini joriy etish qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, raqamli marketing vositalari, brend strategiyasi hamda marketing xarajatlarni samarali rejalashtirish korxonalarining bozor ulushi va sotuv hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot davomida tuzilgan ekonometrik model natijalari raqamli marketing va brend strategiyasining raqobatbardoshlikka ta'siri boshqa omillarga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rsatdi. Bu esa zamonaviy bozor sharoitida qurilish korxonalarini uchun innovatsion marketing yondashuvlarini strategik boshqaruv darajasiga ko'tarish zarurligini tasdiqlaydi. Olingan xulosalar xalqaro ilmiy adabiyotlarda keltirilgan natijalar bilan uyg'un bo'lib, innovatsion marketing konsepsiyasining universalligini namoyon etadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion marketing yondashuvlaridan foydalanish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki mijozlar bilan uzoq muddatli ishonchli munosabatlarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Brend imijining mustahkamlanishi va raqamli platformalar orqali ochiq axborot almashinuvi qurilish korxonalarining bozorga moslashuvchanligini kuchaytiradi hamda ularning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Qurilish korxonalarida marketing faoliyatini raqamlashtirish va innovatsion marketing texnologiyalarini joriy etish strategik ustuvor yo'nalish sifatida belgilanishi lozim.



2. Marketing strategiyalarini ishlab chiqishda mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv va bozor talablarini prognozlash mexanizmlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

3. Raqamli marketing bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularning kompetensiyasini oshirish zarur.

4. Qurilish korxonalarida innovatsion marketing samaradorligini baholash uchun ekonometrik modellar va statistik tahlil usullaridan muntazam foydalanish maqsadga muvofiq.

5. Marketing faoliyatini rejalashtirishda brend menejmentiga alohida e'tibor qaratish, korxona imijini mustahkamlash orqali raqobat ustunligini yaratish tavsiya etiladi.

Qurilish korxonalarida innovatsion marketing yondashuvlarini izchil joriy etish raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash va bozor sharoitida barqaror rivojlanishga erishishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijalari kelgusida qurilish sohasida marketing strategiyalarini yanada chuqurroq o'rganish va takomillashtirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. Manba: <https://test.lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ilmiy elektron jurnali. Manba: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED>
3. Shermuxamedova N. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: (nashriyot va yil ko'rsatilmagan).
4. Asad o'g'li R. D. (2025). Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy innovatsion rivojlantirish istiqboli. Global Trends in Science and Innovation, 1(1), 104–109.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5598-son Farmoni.
6. Asad o'g'li R. D. (2025). Mintaqada sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning solishtirma ekonometrik modellari. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 49(1), 323–326.
7. Kutbitdinova M., Matrizayeva D. Marketing strategiyasi va raqobat sharoitida uning rivojlanishi. Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (ilmiy maqola).
8. SWOT Analysis. Mind Tools. Manba: <https://www.mindtools.com/a3mi00v/swot-analysis>
9. Asad o'g'li R. D. (2025). Mintaqada sanoat ishlab chiqarishning baholash omillari. Journal of New Century Innovations, 89(2), 103–105.
10. Asad o'g'li R. D. (2026). Innovatsion rivojlanish tushunchasi va uning sanoat iqtisodiyotidagi o'rnini. Образование, наука и инновационные идеи в мире, 86(3), 290–296.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100